



BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Murodova Z.

QarshiDU "Pedagogika" kafedrasini dotsenti

Tursunova S.

ShDPI "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi"

mutaxassisligi II-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: madaniyat, kasbiy madaniyat, pedagogik vazifa, pedagogik fikrlash, kasbiy yetuklik.

Ключевые слова: культура, профессиональная культура, педагогическая задача, педагогическое мышление, профессиональная зрелость.

Key words: culture, professional culture, pedagogical task, pedagogical thinking, professional maturity.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilarning muhim tarkibiy asosi sifatida kasbiy madaniyatni shakllantirish faoliyatning asosi sifatida metodologik bilimlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda shiddat bilan o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sharoitlarda moslashuvchanlik va mobillikni tarkib toptirish, umumta'lim fanlarini o'qitishda metodologik bilimlardan foydalanishning didaktik asoslarini takomillashtirish, pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishga doir kasbiy layoqatlilikni rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim sifatini oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmini ishlab chiqish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohaslarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va



axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishga doir tizimli va uzviy amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni aniqlash va belgilash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish omillari, o'qituvchida professionallikni rivojlantirishga doir kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajalarini aniqlash va belgilashdan iborat.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, «madaniyat» tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur.

“Madaniyat” atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida rang-barang ma'nolarda ifodalangan. “Madaniyat” va “Kultur” atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra, ayni ma'noni anglatib, lotincha “ishlov berish”, “parvarish qilish” ma'nosini anglatgan. Keyinchalik “ma'rifatli bo'lish”, “tarbiyali”, “bilimli bo'lish” mazmunida ishlatilgan. O'zbek tilida keng ishlatiladigan “madaniyat” atamasi arabcha “madaniy – shaharlik” degan ma'noni bildiradi.

Madaniyat jamiyat taraqqiyoti darajasini xarakterlovchi, ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tizim bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy mazmunini tashkil etadi. Bundan madaniyat shaxs va uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir qonuniyatlar, shu jumladan, shaxs va jamiyatning borliqqa bo'lgan ma'naviy munosabatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi shaxsning talabi, qiziqish xohishiga mos ravishda uning madaniy faoliyatini tashkil qilish yo'llari, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari tizimi, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va ma'naviy madaniyatni shakllantirish qonuniyatlari majmuidan iborat, degan xulosa kelib chiqadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatni uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqari yaratilmaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biror moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini o'z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs tashqi olam, voqea va hodisalarni aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonida ma'naviy madaniyat tashkil

topadi. Yuksak ma'naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzumi munosabati, turli ma'rifiy-madaniy g'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi ob'yekt shaxs hisoblanadi.

Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishda «kasbiy madaniyat» va «kasbiy madaniyatni rivojlantirish» tushunchalariga mualliflik nuqtai nazaridan quyidagicha ta'riflar keltirildi: «Kasbiy madaniyat - bu mutaxassisning kasbiy o'z-o'zini aniqlash, kasbiy motivatsiya, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy tajriba va mahoratning yuqori darajada rivojlanganligini belgilab, mustaqillik, erkinlik, ijodiy faollik, qabul qilinayotgan qarorga nisbatan mas'uliyat, o'quvchilarga nisbatan hurmat ko'rsatish hamda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun zarur axloqiy sifat va fazilatlar bilan bog'langan»

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish uchun ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga qiziqish shakllanadi, bu o'z navbatida o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ya'ni mustaqil o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari lozim:

- o'zini o'zi rivojlantirishga intilish;
- hayotiy va kasbiy tajribalarni o'zlashtirishga intilish;
- ta'lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lish;



- kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o'qitish jarayonini takomil-lashtirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish.

O'qituvchisining kasbiy madaniyat uning kasbiy faoliyat doirasidagi, uning shaxsiy sifat tavsifining mohiyati-tizimli ta'limdan iborat.

O'qituvchining kasbiy madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasi va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilar kiradi:

- Intellektual rivojlanish darajasi
- Pedagogik faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi
- Asosiy kasbiy pedagogik etika, ma'naviy xarakter
- O'zaro munosabat madaniyati
- So'zlashuv madaniyati
- Tashqi ko'rinish madaniyati va boshqalar

Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. Jumayeva.G.T. Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 3/(2022), 378-380b.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. -T.:2007, -315 b
3. Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
4. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – 165 b.
5. Muradova Z.K. Constructions of developing scientific and professional creativity in future teachers. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022.-101-104c.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosi sifatida kasbiy yetuklik, pedagogik fikrlash, kasbiy-metodik tayyorgarligi, kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llari tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье как основа формирования профессиональной культуры учителей начальных классов рассматриваются профессиональная зрелость, педагогическое мышление, профессионально-методическая подготовка, знание профессиональной деятельности, организация учебного процесса, пути саморазвития.

SUMMARY

This article examines professional maturity, pedagogical thinking, professional and methodological training, knowledge of professional activities, organization of the educational process, and ways of self-development as the basis for the formation of the professional culture of primary school teachers.